






BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

6/2024



6/2024

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 6, iyun

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

BUXORO MUZEY QO'RIQXONASI EKSPONATLARI TO'PLAMIDAGI O'RIN OLGAN OSSUARIYLAR

Niyozova Maxsuma Ilyasovna,

*Buxoro davlat universiteti arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrası dotsenti, t.f.n.*

kurgolib@mail.ru

Djumayeva Sarvinoz Saidovna,

*Buxoro davlat universiteti arxeologiya yo'nalishi magistranti
noza14061991@gmail.com*

Annotatsiya. *Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasining arxeologik eksponatlar kolleksiyasida Buxoro vohasi hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan ikkita yaxlit ossuariy va ossuariylarning parchalari mavjud. Ossuariylar loydan, asosan, qoliplash orqali yasaladi. Ossuariylar va ossuariy dafn etish usullariga bir qator ilmiy tadqiqotlar bag'ishlangan. Maqolaning maqsadi Buxoro muzeyi fondida saqlanayotgan, amalda ilmiy tadqiqot ob'yekti bo'lmagan ossuariylarni ilmiy muomalaga kiritishdan iborat. Ossuariylar nafaqat marhumning qoldiqlarini saqlash uchun, balki maxsus ishlov berishdan o'tgan qoldiqlarni saqlash uchun ham mo'ljallangan edi, ya'ni "tozalash tartibi" deb ataladigan jarayon. So'g'dning turli hududlarida ossuariylarning shakli va bezaklari xilma-xildir. Buxoro viloyati hududidan topilgan ossuariylar oval shaklda, bezaksiz, boshqa viloyatlardagi ossuariylardan ajralib turadi.*

Kalit so'zlar: *Ossuariy, eksponat, G'arbiy Sug'd, Poykend, zardushtiylik, loy, qo'l mehnati, labgir, suyaklar, dafn etish.*

ОССУАРИИ ИЗ КОЛЛЕКЦИИ БУХАРСКОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА

Аннотация. *В археологической коллекции Бухарского государственного музея-заповедника хранятся два целых оссуария и фрагменты оссуариев, найденных во время археологических раскопок на территории Бухарского оазиса. Сделаны оссуарии из глины, преимущественно лепным способом. Оссуариям и оссуарным способам захоронения посвящен ряд научных исследований. Задача данной статьи ввести в научный оборот оссуарии, хранящиеся в коллекции Бухарского музея, которые практически не являлись объектом научного изучения. Оссуарии были предназначены не только для хранения останков умершего человека, но и для хранения останков, прошедших специальную обработку, т.е. так называемой «очистительную процедуру». Формы и декор оссуариев разнообразны в разных регионах Согда. Оссуарии, найденные на территории Бухарской области овальную форму, без орнамента, отличающее их от оссуариев других регионов.*

Ключевые слова: *оссуарий, Западный Согд, Пайкент, зороастризм, глина, лепка, венчик, кости, захоронение*

OSSUARIES FROM THE COLLECTION OF THE BUKHARA STATE MUSEUM COLLECTION

Abstract. *The archaeological collection of the Bukhara State Museum-Reserve contains two whole ossuaries and fragments of ossuaries found during archaeological excavations on the territory of the Bukhara oasis. Ossuaries are made of clay, mainly in a stucco way. A number of scientific studies have been devoted to ossuaries and ossuary burial methods. The purpose of this article is to introduce into scientific circulation the ossuaries stored in the collection of the Bukhara Museum, which have practically not been the object of scientific study. The ossuaries were intended not only for the storage of the remains of a deceased person, but also for the storage of remains that had undergone special treatment, i.e. the so-called "cleansing procedure". The shapes and decor of ossuaries are diverse in different regions of Sogd. The ossuaries found on the territory of the Bukhara region have an oval shape, without ornament, which distinguishes them from ossuaries in other regions.*

Keywords: *Ossuary, Western Sogd, Paykend, Zoroastrinism, clay, hand work, rim, bones, burial.*

Kirish. Ark muzey qo'riqxonasi – bu O'zbekistondagi eng qadimiy muzeylardan biri sanaladi. Ushbu muzeyga 8-noyabr 1922-yilda asos solingan. Hozirgi kunda muzey o'zining Buxoro vohasining tarixi haqida guvohlik beruvchi eksponatlar to'plamiga juda boy. Ushbu to'plamlar orasida arxeologik eksponatlar kolleksiyasi alohida ajralib turadi. Ushbu to'plam o'z ichiga G'arbiy Sug'd hududida dastlabki arxeologik qazish ishlari mobaynida topilgan ashyoviy materiallarni qamrab olgan va hozirga qadar zamonaviy arxeologiya yordamida topilgan eksponatlar tufayli boyitilmoqda. To'plamlardagi eksponatlarga nazar qaratar ekanmiz, G'arbiy So'g'd hududiga tegishli bo'lgan diniy ashyolar diqqatimizni tortadi. Ular orasida ossuariylar (ostadonlar- forsha.) mavjud bo'lib, ular G'arbiy So'g'd hududi qo'rg'onlaridan, Poykend nekropolidan XX asrning 50-yillarida arxeologik qazish ishlari natijasida topilgan. Har ikkala ossuariy ham maxsus mutaxassislar tomonidan XX asrning 90-yillarida ta'mirlangan va qayta tiklangan.

Ostadon so'zi qadimgi fors tilida "suyak saqlanadigan tobut" ma'nosini bildiradi. Zardushtiylik diniga ko'ra inson vafot etganidan keyin uning jasadini yerga ko'mish, suvga tashlash, olovda yoqish yoxud havoda saqlash mumkin bo'lmagan. Inson jasadi dastlab yirtqich hayvonlarga yem bo'lganidan so'ng uning suyaklari maxsus sopol qutilar-ossuariylarga solinib, ba'zi inshootlarda saqlangan. Shunday qutilarni O'rta Osiyoning barcha hududlarida uchratish mumkinligi uchun ham ko'p olimlar zardushtiylikning paydo bo'lgan yeri O'rta Osiyo deb hisoblaydilar.

O'rta Osiyo hududiga tegishli bo'lgan ossuariylar haqida bir qator ilmiy ishlar yaratilgan bo'lib, ulardan dastlabkisi rus sharqshunoslari K.A. Inostrantsev, V.V.Bartold,[Bartold, 1966, 155-156-b] keyinchalik esa sovet davri olimlari bo'lgan B.V.Lunin va Yu.A.Rapoportlar tomonidan ilmiy ishlar ishlab chiqilgan.[Rapoport, 1971, 11-b] Shunday ilmiy tadqiqotlarning katta qismi so'g'd ossuariylariga taalluqlidir. L.V.Pavchinskaya o'zining dissertatsiyasida So'g'd ossuariylarining yangi qirralari haqidagi ma'lumotlarini aytib o'tgan va bu ilmiy jihatdan jiddiy burilish bo'lgan edi. [Павчинская, 2019,] Chunki u ossuariylar haqidagi 60% dan ko'proq ma'lumotlarni ilm-fanga taqdim eta olgan. Hozirda u o'rgangan ossuariylar mamlakatimizning ko'plab muzeylari eksponatlari orasidan o'rin olgan.

Natijalar. Buxoro shahridagi Ark muzey qo'riqxonasida bugungi kunda saqlanib qolgan ikkita mana shunday ostadonlar mavjud bo'lib, garchand ular bir vohaga mansub bo'lsa-da tashqi ko'rinishi jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Bundan anglab olish mumkinki, ostadonlar foydalanilgan kezlarda ular ko'rinishi, shakli, o'lchami va yasalishi jihatidan o'zgacha bo'lgan.

1.Dastlabki ostadon hajmi jihatidan anchagina katta bo'lib, uzunligi buyum yuqorisidan toki pastiga qadar 56 sm, devorlarining balandligi 21-22 sm (buyumni noto'g'ri kesilishi natijasida), buyum pastining kengligi 27 sm, buyumning yuqori qismi kesilish devorlari 25 sm, qalinligi 1 sm, oval shaklidagi buyum [Обельченко, 1959, с. 102-105] . Bu ossuariyni O.V.Obelchenko 1952-yilda Quyimozor suv omborida ishlaydigan baliqchilar tomonidan topilganini eshitgan. Topilgan paytda ossuariy asosan bir necha yirik bo'laklarga bo'lingan. O.V. Obelchenko ossuariy topilgan joyni - suv omborining tamarisk o'sgan kichik orollaridan birini ko'zdan kechirishga muvaffaq bo'ldi. O'sha hududdagi baliqchilarning so'zlarig qaraganda ossuariy orolning qirg'ogidan topib olingan. Orolni ko'zdan kechirish jarayoni hech qanday natijani bera olmadi ya'ni ushbu tadqiqot davomida na bir arxeologik topilmalar va arxitektura inshootlari topishga muvaffaq bo'lindi. Quyimozor ossuariysining bir vaqtlar cho'l va odam yashamaydigan qismidagi tepalik bo'lgan orolda topilgan joyi odamga o'ziga xos nausni ko'rish imkonini beradi. Bu tepalikning tik yon bag'irlari ossuariylar yotqizilgan joy bo'lib xizmat qilgan bo'lishi mumkin. Naus ostidagi tabiiy tepalikdan foydalanish Markaziy Osiyoda juda ko'p o'xshashliklarga ega. Shuning uchun suv ombori joylashgan orol bir vaqtlar ossuariylar uchun nekropol bo'lib xizmat qilgan deb taxmin qilish tabiiy. Ushbu ossuariy qaymoqrang tusli bo'lib, loyi qum, slanets va shamot aralashmasidan hamda qo'l mehnati yordamida ishlangan. Buni biz buyum devorlarining silliqligi va bir xil shaklga ega ekanligidan bilib olishimiz mumkin. Uning shakli oval tarzda, kattagina og'zi ham bor. Og'zining ustida ikkita tirgagichi mavjud bo'lib, og'zining ikki yonida joylashgan. Bu esa ostadonni hech qanday qiyinchiliksiz ochish imkonini berishini bilib olshimiz mumkin. Ossuariyni taglik qismi tekis, labgir qismi esa tashqariga qayirilib qo'yilgan. Ushbu holat ossuariy og'zini mahkam yopilishini ta'minlaydi. Qopqoqning faqat bir bo'lagi qolgan, bu esa bizga tutqich qanday shaklda ekanligini ko'rsatib berolmaydi. U tepasidan kesilgan. Ossuariy devorlarining tashqi yuzasida qoliplar quyidagicha joylashgan: bitta qolip ossuariyning uzun tomonida va ikkitasi yon tomonlarida bir-biridan qisqa masofada dumaloq devorlarda joylashgan. [Обельченко, 1959, с. 103] Saqlanib qolgan qoliplar loy bo'lagidan ichi bo'sh dumaloq konus shaklida yasalgan bo'lib, pastga qarab torayib, yuqoriga qarab kengayadi. Chet ostidagi yuqori qismda loydan yasalgan ingichka tizma bilan o'ralgan. Qoliplarning maqsadi noaniq, tadqiqotchilar bu rasmlarning diniy maqsadini qayd etib, turli fikrlarni bildiradilar; Masalan, topilma muallifi O.V. Obelchenkoning ta'kidlashicha, qopqoqlar utilitar ma'noga ega bo'lib, u yerda diniy o'simliklar yoki xudolarning tasviri kiritilishi mumkin edi. [Обельченко, 1959, с. 104] . Kanopning

tayanchlari ularga birlashtirilgan bo'lishi mumkin degan fikr bor. Ossuariylar ustiga kanoplarni qo'yish odati kumush idishdagi dizayndan ma'lum [Распопова, Шишкина, 1999, с. 77].

Hozirgi kunda ossuariy Buxoro muzey qo'riqxonasi eksponatlar ko'rgazmasidan o'rin olgan.

Arxeologik qazishmalar paytida ushbu ossuariylar yaqinidan tangalar topilgan. Ular misdan yasaldan, to'rtburchak shakldagi sug'diylarga mansub tanga bo'lib, VII asrning ikkinchi yarmi-VIII asrning birinchi yarmiga oid. Undan tashqari, qazishmalar jarayonida bir qancha sopol parchalar, qo'y suyaklarini ham topishga muvaffaq bo'lishgan. Ossuariy ham hajmi, ham mazmuni bo'yicha nafaqat marhumning qoldiqlarini saqlash, balki maxsus oldindan ishlov berishdan o'tgan qoldiqlarni saqlash uchun ham mo'ljallangan. Bu haqida bir qancha ma'lumotlar yozma manbalarda aytilgan bo'lib, ulardan biri 739-yilda (hijriy 121-yil) buxorxudot Tug'shodaning (91-122/709-739) o'limi tavsilotlari bilan bog'liq. Tarixchi at-Tabariyning (839-923) guvohlik berishicha, arablar bostirib kelgan vaqtda ko'plar qatori Tug'shoda ham islom dinini qabul qilib, uning amallarini bajargan. Tug'shoda Samarqandda o'ldirilgan, uning xizmatkorlari tanasini suyaklaridan ajratib olishgan va suyaklar Buxoroga yuborilgan. [История ат-Табари, 1987, с. 269]. Xuddi shu ma'lumotni tarixchi Narshaxiy ham "Buxoro tarixi" asarida ta'kidlab o'tgan. "Nasr ibn Sayyor namoz o'qimoqqa turib takbir tushirdi va imomlikka o'tib namoz o'qiy boshladi. Buxorxudot esa namoz o'qimay kusrida o'tirar, chunki u haligacha yashirin ravishda kofir edi." "Buxorxudot vasiyat qilar edi: bir soat vaqt o'tgach, jon berdi. Uning xizmatkorlari kirdilar va go'shtini ajratib tashlab suyagini Buxoroga olib keldilar. U o'ttiz ikki yil podshoh bo'lib turdi".[Наршахий, 1966, с. 58] Ya'ni Tug'shoda nomiga islom dinini qabul qilib, amalda haligacha zardushtiylik dinida bo'lgan. Xullas, VII-VIII asrlarda G'arbiy Sug'dda maxsus guruh kishilari yoki yirtqich hayvonlar va qushlar tomonidan mayitning jasadi suyaklaridan ajratib olish odati mavjud bo'lgan.

O.V.Obelchenko ta'kidlaganidek: Quyimozor va Lyavandak qabristonlarida dafn etishning oxirgi turi qo'rg'onlarga tushirilgan xumlarda suyaklarni ko'mish edi. Bu tepaliklar 1934-yilda arxeolog V.A. Shishkin tomonidan qadimiy Kampir Duval devori yaqinida Buxoro vohasining sharqiy qismida razvedka safari paytida topilgan. Bunday qabrlar Soinov tepaligi yaqinidan topilgan. Tepalikning o'zi Quyimozor suv omborining shimoli-sharqida joylashgan edi. Skelet suyaklari nafaqat butun xumlarda, balki katta bo'laklarda, xususan, xumlarning tubida yoki ustki qismi sindirilgan dumaloq ko'zalarda ham yotqizilgan. Ehtimol, Soinov tepaligi daxma bo'lib xizmat qilgan bo'lishi mumkin, u yerda tanalar qushlar yoki yirtqich hayvonlar tomonidan yumshoq qoplamalardan tozalangan. Qo'rg'onning voha tashqarisidagi cho'lda joylashishi zardushtiylik diniy qonunlari talablaridan kelib chiqib, o'liklarning jasadlarini suyaklarni tozalash uchun olib chiqish joyini tanlashni belgilab bergan talablarga to'la javob bergan. Yumshoq qoplamalardan tozalangan suyaklar qarindoshlar tomonidan yig'ilib, xumlar yoki ossuariylarga o'ralgan, bu holda ular dafn etish joylari bo'lib xizmat qilgan.

Soinov tepaligidan daxma uchun foydalanish haqidagi taxmin 1952-yildagi tekshirish paytida o'z tasdig'ini topdi. Tepalikning g'arbiy yon bag'rida qizg'ish loydan yasalgan ossuariy buyumi devorining parchasi topilgan. Yuqori platformani tozalashda boshqa ossuariyning yana uchta bo'lagi bor.

2.Keyingi ostadon ham hajmi jihatidan dastlabkisidan qolishmaydi, shakli ovalsimon, ammo ko'rinishi jihatidan ancha oddiy sanaladi. Uzunligi 63 sm, kengligi 30 sm. Poykend nekropoli V.A.Shishkin tomonidan razvetka paytida topilgan edi. U Buxoro viloyatining Qorako'l tumani hududida, Poykend va Bad Osiyo o'rtasidagi kichik tepalik qoyasining tepasida joylashgan edi. 1954. 1956 -yilda G.V. Shishkina boshchiligidagi arxeologik qazishma ishlari paytida Poykent qo'rg'onining nekropolidan topib olingan.

Poykend yaqinidagi tepaliklarda joylashgan nekropolda monolit kvadrat inshootlar zanjiri – minoralar mavjud bo'lib, ular rampa bo'ylab ko'tarilgan. Ularda jasadlar ko'rsatilgan bo'lib, oilaviy dahma sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan. Tuzilmalar arablar istilosi paytida vayron qilingan. Ossuariylar va yirik uy-ro'zg'or idishlari, ehtimol, suyaklari ham bor edi. Bizgacha faqat ossuariy va bir nechta uy-ro'zg'or buyumlari saqlanib qolgan [Распопова, Шишкина, 1999, с. 76].

Ossuariyning loyi qum, slanets va shamot aralashmasidan hamda qo'l mehnati yordamida ishlangan. Uning qo'lda yasalganligi tashqi ko'rinishidan ma'lum, chunki buyum devorlari notekis, silliqatlanmagan. Ushbu ostadon qizg'ish tusli, qo'pol ishlangan. Buni buyum devorining g'adir-budir ko'rinishda ekanligidan anglab olish qiyin emas. Loy massasi tarkibi turli xil tuproqlardan qorilgan. Sababi buyumga diqqat bilan e'tibor berilsa ba'zi yon tomonlari och qizg'ish, qaymoqrang tusda, qopqog'i va devorining ustki qismi esa to'q qizg'ish tusda. Uning loy massasida katta-kichik g'ovakchalar ham bor. Undan tashqari buyumning labgir qismi arracha yoki tishli ko'rinishda bezatilgan.

Ushbu ossuariy haqidagi ma'lumotlar tadqiqotchi L.V.Pavchinskiy tomonidan nashr etilgan [Павчинская, 2019, с. 207] Buyumning labgir qismidagi arracha yoki tishli bezaklarning ramziy ma'nosi

HISTORY

borligi haqida tadqiqotchi Abdullaev K.A. fikr bildirar ekan [Abdullaev, 1991, b. 107-123] u diniy va diniy me'morchilikni loyihalashda qo'llanilgan deb aytadi.

3. Arxeologik qazishma ishlari paytida G.V.Shishkina tomonidan buyum qopqog'I topilgan bo'lib, anchagina qo'pol yasalgan va markaziy qismida tutqichi bor. U buyumning og'iz qismiga qo'pol qilib birlashtirilgan. Tutqichining o'rtasidan bitta yo'g'on tasma o'tgan. Og'izning yassi tomonida qo'l izlari ko'zga tashlanadi. Bu hech qanday shak-shubhasiz usta-kulolning barmoq izlari bo'lsa kerak. Qopqoqning uzunligi - 56 sm, kengligi - 33 sm, devorining qalinligi 1.2 sm.

Xulosa. Muzey kolleksiyalaridagi ilgari nashr etilmagan eksponatlari, xususan, ossuariylarni ilmiy muomalaga kiritish tadqiqotchilarga Buxoro So'g'didagi dafn marosimlari, ossuariy tipidagi ayrim masalalarni chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Bunday masalalar sirasiga ossuariy tuzilmalarning tipologiyasini (daxmas, naus), ularning boshqa mintaqalar bilan umumiyligi va farqini o'rganishni qayd etish mumkin; so'g'd, xususan, Buxoro vohasi aholisining so'g'd ossuariylarining bezaklarida o'z ifodasini topgan g'oyaviy e'tiqodlari, tozalash tartib-qoidalari; ossuariy qabrlarning tarqalish maydoni. Markaziy Osiyo qadimgi aholisining dunyoqarashi va qadimiy madaniyati bir necha bor olimlarning tadqiqot ob'ektiga aylangan. Bu muammolarni hal qilishda dafn marosimi yodgorliklari va ulardan olingan materiallarni o'rganish alohida ahamiyatga ega. Dafn marosimi keyingi hayotga, ruhlarning o'lmasligiga ishonishni aks ettiradi va o'liklarga sig'inish va ajdodlarga sig'inish haqida tushuncha beradi.

Ossuariylar arxitektura va san'at tarixini o'rganishda juda qimmatli manba hisoblanadi. Ossuariylarda O'rta Osiyo qadimgi xalqlarining yuksak badiiy mahorati aks etgan.

Quyimosor va Poykend ossuariylarining topilishi Buxoro vohasining qadimiy madaniyatini o'rganishdagi bo'shliqni to'ldiradi va So'g'dning bu qismini ossuariy qabrlarning tarqalish hududiga kiritadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Абдуллаев К.А. К символике архитектурных деталей на оссуарных рельефах/ИМКУ, вып. 25, - 1991, - с. 107-123.*
2. *История ат-Табари . Ташкент, 1987.*
3. *Мери Бойс. Зороастрийцы верования и обычаи. Санкт-Петербург 2003.*
4. *Обельченко О.В. Захоронение костей в хумах и оссуариях в восточной части Бухарского оазиса/ИМКУ, - вып. 1, - Ташкент, - 1959. - С. 94-108.*
5. *Павчинская Л.В. Раннесредневековые оссуарии Согда как исторический источник (Типология, хронология, районирование). Археология Средней Азии . Архивные материалы. МИЦАИ, Самарканд, 2019.*
6. *Распопова В.И., Шишкина Г.В. Согд/Средняя Азия в раннем средневековье.-М.1999-с. 50-77.*
7. *Рапопорт Ю.А., Из истории религии древнего Хорезма (оссуарии). -М.,1971.*
8. *Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий., Бухоро тарихи. -Т.,1966*